

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**FARG'ONA VILOYATI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

“ANIQ VA TABIIY FANLAR TA'LIMI” KAFEDRASI

FARG'ONA VILOYATI OLTIARIQ TUMANI

6 – UMUMTA'LIM MAKTABINING

MATEMATIKA FANI O'QITUVCHISI

MO'MINOVA GULBAHORning

OCHIQ DARS ISHLANMASI

Farg'ona – 2012 yil

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

MAVZU: O'NLI KASRLARNI QO'SHISH VA AYIRISH. TAYANCH SO'ZLAR: kasr, butun qismi, kasr qismi.
MAVZUNING QISQACHA TA'RIFI: O'nli kasrlarni qo'shish va ayirishda ustun usulidan foydalanamiz, butun qismi tagiga butun qismi, kasr qismi tagiga kasr qismi yoziladi.
O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI: Metod: interfaol usuli, munozara. SHakl: nazariy, amaliy. Vositalar: darslik, ishlanma, plakat, tarqatma material. Baholash: 5 ballik.
DARS /AMALIYOT/NING MAQSAD VA VAZIFALARI:
MAQSADLAR: Ta'limiy: o'nli kasrlarni o'nli kasrlarga qo'shish va ayirishni bilish. Tarbiyaviy: hayotiy misollar bilan tushuntirish, mavzuga qiziqtirish. Rivojlantiruvchi: testga yo'naltirish, erkin fikrlash qobiliyatini o'stirish.

DARS JARAYONI VA UNING BOSQICHLARI		
ISHNING NOMI	BAJARILADIGAN ISH MAZMUNI	VAQT
1-bosqich: Tashkiliy qism	Salomlashish. Navbatchi axboroti.	3 min
2-bosqich: Refleksiya. Extiyojlarni aniqlash.	“Klaster” texnologiyasi	7 min
3-bosqich: Yangi mavzu bayoni	“Matematik diktant”	20 min

4-bosqich: Mustahkamlash	Kartochkalarda misollar tarqatiladi. “Bumerang” texnologiyasi.	10 min
5-bosqich: Baholash. Dars yakuni.	Baholash va darsni yakunlash.	3 min
6-bosqich: Uyga vazifa	Uyga vazifa.	2 min

DARSNING MAVZUSI: O’NLI KASRLARNI QO’SISH VA AYIRISH

Darsning maqsadlari:

Ta’limiy maqsadi:

o’nli kasrlarni o’nli kasrlarga qo’shish va ayirishni bilish.

Tarbiyaviy maqsadi:

hayotiy misollar bilan tushuntirish, mavzuga qiziqtirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

testga yo’naltirish, erkin fikrlash qobiliyatini o’stirish.


Tashkiliy qism

O’quvchilar bilan salomlashish. Navbatchi o’quvchi axborotini eshitish.
Bugungi kun yangiliklari bilan tanishish.

O’quvchilar 3 ta guruhga bo’linadi. O’quvchilar qo’llariga berilgan kartochkaga ismlarini yozib, yoqalariga yopishtirib oladilar.

Ehtiyojlarni aniqlash

O’tilgan mavzuni “Klaster” texnologiyasi yordamida tekshiramiz.



Yangi mavzu bayoni

O'qli kasrlarni "ustun" usulida qo'shish amali natural sonlarni "ustun" usulida qo'shish kabi bajariladi.

$$\begin{array}{r} + 2,65 \\ + 6,32 \\ \hline 8,97 \end{array} \qquad \begin{array}{r} + 25,120 \\ + 47,238 \\ \hline 72,358 \end{array}$$

O'qli kasrlarni ayirish, natural sonlardagi kabi "ustun" usulida bajarish ham mumkin.

$$\begin{array}{r} - 12,47 \\ - 2,26 \\ \hline 10,21 \end{array} \qquad \begin{array}{r} - 18,740 \\ - 7,875 \\ \hline 10,865 \end{array}$$

Verguldan keyingi raqamlar sonini tenglab, "ustun" shaklida amallarni bajaramiz.

Matematik diktant

<u>MATEMATIK DIKTANT</u>
1. O'nli kasr deb nimaga aytiladi?
Maxraji 10 ning darajasidan iborat bo'lgan kasr <u>o'nli</u> <u>kasr</u> deyiladi.
2. Kasrlarni o'nli kasr ko'rinishida yozing:
$\frac{3}{10}; \frac{29}{100}; 2\frac{7}{10}; 81\frac{6}{100}; 50\frac{50}{100}.$
0,3; 0,29; 2,7; 81,06; 50,50.

Mustahkamlash

“Bumerang” texnologiyasi

Amallarni bajaring	26,7 + 2,41	40,3 – 12,1	0,08 + 1,2
28,2		+	
1,28			+
29,11	+		

Baholash

Darsni yakunlash, o'quvchilarni baholari taxlil qilinib, jurnalga, kundaoik daftarlariga qo'yiladi. Darsni qanday o'tganligi o'quvchilardan fikrini eshitib, dars yakunlanadi.

Uyga vazifa: 59, 61, 78, 79 - misollar.